



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL  
XO'JALIGI VAZIRLIGI



"SHAHARSOZLIK  
HUJJATLARINI EKSPERTIZA  
QILISH RESPUBLIKA  
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 24-06-2024 yil



## YIG'MA EKSPERT XULOSASI

209893 - SONLI

|                                                                                                                                                                                                                                      |                                                     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|
| <b>Obyekt nomi:</b> "Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangiqo'rg'on MFY, Shoxsanam 2-tor ko'chasi, 83-uy manzilida O'z yer uchastkasida o'rta qavatli ko'p kvartirali turar uy-joy binolari sifatida qayta qurish" ishchi loyihasi |                                                     |
| <b>Buyurtmachi:</b>                                                                                                                                                                                                                  | EAST-YARD MCHJ                                      |
| <b>Bosh loyihachi:</b>                                                                                                                                                                                                               | "SHARQEVROPROEKT" MAS'ULIYATI<br>CHEKLANGAN JAMIYAT |
| <b>Moliyalashtirish manbai:</b>                                                                                                                                                                                                      | Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan           |
| <b>Bosh pudratchi:</b>                                                                                                                                                                                                               | buyurtmachi tomonidan aniqlanadi                    |
| <b>Qurilish turi:</b>                                                                                                                                                                                                                | Yangi qurilish                                      |
| <b>Murojaat raqami:</b>                                                                                                                                                                                                              | 013881                                              |

### 1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar qurilish boshqarmasi tomonidan 2023-yil 23-iyunda berilgan 1726290-117765-sonli Ob'ektni ixtisosini o'zgartirish va rekonstruksiya qilishga ruxsatnoma.

1.2. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2023-yil Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.3. Toshkent shahar qurilish boshqarmasi tomonidan 2023-yil 04-iyulda berilgan 1726-1726290-69725-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.4. 2023-yilda «GEO-MIR» MCHJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.5. "Toshkent shahar suv ta'minoti" MCHJ tomonidan 2023-yil 24-noyabrda berilgan 270/4-4011-sonli texnik sharti.

1.6. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan 2023-yil 21-dekabrda berilgan 05-2038-sonli texnik sharti.

1.7. "Hududgaz Poytaxt" GTF tomonidan 2024-yil 23-fevralda berilgan 056336-sonli texnik sharti.

1.8. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2024-yil 29-yanvarda tuzilgan 29/01-sonli shartnoma.

### 2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «ishchi loyiha»ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

- bosh reja (GP);
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- konstruktiv hisobot;
- aloqa tizimi (SS);
- yong'in signalizatsiyasi (PS);
- elektr ta'minoti (EO);
- isitish va shamollatish tizimi (OV);
- gaz ta'minoti (GS);
- ichimlik suvi va oqava suv tizimi (VK);
- binoning teplotexnik hisoboti.
- binoning energetik pasporti.

### **3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.**

#### *3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.*

Normativ shamol bosimi -  $W_o = 0,38$  kPa.

Normativ qor qatlami vazni -  $S_n = 0,50$  kPa.

Qurilish maydonining zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproq toifasi seysmik xususiyatiga ko'ra - II (ikkinchi).

Tuproq - lyossimon qumloq.

Tuproq cho'kuvchanligi - I (birinchi) tip.

Yer osti suvlari yer sathidan 6.0-6.5 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi - 0,7 m.

#### *3.2. Bosh reja.*

Ushbu ob'ekt Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangiqo'rg'on MFY, Shoxsanam 2-tor ko'chasi, 83-uy manzilida joylashgan bo'lib, hudud quyidagi bino va inshootlar qurilishi ko'zda tutilgan:

- turar-joy binosi;
- bolalar maydonchasi;
- transformator nim stansiyasi;
- ochiq avtoturargoh;
- yer osti avtoturargoh;
- maishiy chiqindilarni yoig'ish punkti va h.k.

#### *Bosh reja texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari*

Umumiy maydoni -  $5\,861.6\text{ m}^2$ ;

Qurilish maydoni -  $2\,643.0\text{ m}^2$

Qoplamalar maydoni -  $1\,635.6\text{ m}^2$

ko'kalamzor maydoni -  $386.0\text{ m}^2$

#### *3.3. Arxitekturaviy yechimlari.*

Turar-joy binosi 5 ta blokdan iborat bo'lib, bir-biridan seysmik chok bilan ajratilgan.

**Blok A** - 5 qavatli va mansardali, yerto'lasiz, to'rtburchak shaklida bo'lib, rejada tarx o'lchami 17.1x30.0 m. Qavatlar balandligi 3.06m (poldan shiftgacha) ni tashkil etadi.

**Blok B** - 5 qavatli va mansardali, yerto'lasiz, burchak shaklida bo'lib, rejada tarx o'lchami 27.0x23.1 m. Qavatlar balandligi 3.06m (poldan shiftgacha) ni tashkil etadi.

**Blok V** – 5 qavatli va mansardali, yerto'lasiz, to'rtburchak shaklida bo'lib, rejada tarx o'lchami 17.1x30.0 m. Qavatlar balandligi 3.06m (poldan shiftgacha) ni tashkil etadi.

Binoning "5" – "6" o'qlar oralig'ida avtomashinalar o'tishi uchun yo'lak ko'zda tutilgan (bir va ikkinchi qavatlar balandligida).

**Blok G** – 5 qavatli va mansardali, yerto'lasiz, burchak shaklida bo'lib, rejada tarx o'lchami 27.0x23.1 m. Qavatlar balandligi 3.06m (poldan shiftgacha) ni tashkil etadi.

**Blok D** – 5 qavatli va mansardali, yerto'lasiz, to'rtburchak shaklida bo'lib, rejada tarx o'lchami 17.1x30.0 m. Qavatlar balandligi 3.06m (poldan shiftgacha) ni tashkil etadi.

*Ichki pardoqlash:*

Devorlar va pardevorlar – yaxshilangan suvoq, tekislangan, suv emulsiyasi bilan bo'yalgan. Nam xonalarda keramik plitalar bilan qoplangan.

Eshiklar – metal, MDF.

Oynalar – PVX profil.

Shiftlar – suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Pollar – beton.

*Tashqi pardoqlash:*

Devorlar – granit plita bilan qoplash, "ottochento" dekorativ suvoq.

Poypesh – keramogranit bilan qoplangan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Qurilish maydoni -  $2750.0 \text{ m}^2$

Umumiy maydoni -  $16780.0 \text{ m}^2$ ;

Qurilish hajmi -  $55000.0 \text{ m}^3$ ;

*3.4. Konstruktiv yechimlari.*

Binoning konstruktiv sxemasi – monolit temirbeton karkas.

Poydevor asosi – 800mm qalinlikdagi toza tuproqdan yostiq.

Poydevor – lentasimon monolit temirbeton, yig'ma beton bloklar (FBS).

Ustunlar va to'sinlar – kesimi 400x400mm bo'lgan monolit temirbeton.

Tashqi devor – 300mm qalinlikdagi gazoblok.

Tom yopma va oraliq yopma – 220 mm qalinlikdagi yig'ma temirbeton plita.

Lift shaxtasi va zinalar – monolit temirbeton.

Tom qismi issiqlik qoplamasi – 110mm qalinlikdagi mineral-jun qoplamasi.

Tom qismi – yog'och konstruksiyalar bo'ylab profnastil.

Yer osti avtoturargoh – to'rtburchak shaklida bo'lib, umumiy o'lchamlari 35.2x43.2m.

Balandligi 2.9m (poldan shiftgacha).

Konstruktiv sxemasi – monolit temirbeton karkas.

Poydevor devorlari – alohida turuvchi monolit temirbeton.

Ustunlar va to'sinlar – kesimi 400x400mm bo'lgan monolit temirbeton.

Tom yopma – 200 mm qalinlikdagi monolit temirbeton.

Avtoturargohda pandus ko'zda tutilgan.

*3.4. Yong'in xavfsizligi.*

Yong'iniga qarshiligi – II toifa.

Funktsional yong'in xavf turi – F1.3.

Konstruktiv yong'in xavf turi – CO.

*3.5. Energiya samaradorlik.*

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo'riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko'rsatilgan.

Devorlar 70 mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama bilan qoplangan.

Turar-joy binosi tom qismida har birining quvvati 550 Vt bo'lgan umumiy 30 dona quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan.

#### **4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.**

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, suv ta'minoti va kanalizatsiya, gaz ta'minoti, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalashtirish topshirig'iga asosan).

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2023-yil 14-iyuldagi 75913-sonli xulosasi).
- O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali (2024-yil 21-fevraldagi 01-02/14-77-sonli ekologik ekspertiza xulosasi).

#### **6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, muhandislik tarmoqlari, texnologik yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Ekspert tekshiruvi natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan, buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 50 824 038.350 ming so'm miqdorida topshirilgan qurilish qiymati 2 494 737.114 ming so'mga kamaytirilib, 48 329 304.236 ming so'mni tashkil qildi, shu jumladan:

|                                |   |                           |
|--------------------------------|---|---------------------------|
| Qurilish-montaj ishlari        | - | 5 178 139.740 ming so'm.  |
| Qo'shimcha qiymat solig'i      | - | 39 706 708.136 ming so'm. |
| Buyurtmachi boshqa xarajatlari | - | 3 444 456.360 ming so'm.  |

Ish narxining kamayishiga ishchi loyiha asosida qurilish-montaj ishlari hajmini bir biriga moslashtirish, elementlar resurs standartlari, standartlarni aniqlashtirish, ishlaydigan mashinalar va mashina mexanizmlar narxlari, asosiy qurilish materiallarining narxlari, qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini o'zgartirish orqali erishildi.

6.4. Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

6.5. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishinni ta'minlaydi.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik

buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

## **7. Xulosalar.**

7.1. "Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangiqo'rg'on MFY, Shoxsanam 2-tor ko'chasi, 83-uy manzilida O'z yer uchastkasida o'rta qavatli ko'p kvartirali turar uy-joy binolari sifatida qayta qurish" ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

**Bosh ekspert:** Avazov Xashimjon To'rabayevich.

**Ishtirokchi ekspertlar:** Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Xisravdinov Shahobiddin Mikridin O'g'li, Yunusov Anvar Baxtiyarovich, Raximova Kamolaxon Jahongir Qizi